

**KREDIT SIYOSATINING KICHIK BIZNES RIVOJIGA TA'SIRI VA  
MOLIYALASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH  
IMKONIYATLARI**

*Bozorov Sherzod Uzoqboyevich*

*Tangatov Bobir Qulmatovich*

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznesni moliyalashtirish muammolari ko'rib chiqiladi: bankning kredit siyosati va unga qo'yiladigan talablar, tijorat banklarining kredit siyosati mezonlari, ularning siyosatida kreditlarning daromadlilikini oshirish Kichik biznesni kreditlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsifi berilgan. Kichik biznesni moliyalashtirish muammolarini hal etish bo'yicha ham ayrim chora-tadbirlar taklif etilmoqda.

**Kalit so'zlar:** kredit siyosati, kredit portfeli, kredit faoliyatini maqsadi, kredit siyosatining zarurligi, kredit kafolati, foiz stavkalari, imtiyozli kredit, moliyaviy resurslar, kredit ta'minoti.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются проблемы финансирования малого бизнеса: кредитная политика банка и ее требования, критерии кредитной политики коммерческих банков, повышение доходности кредитов в их политике, а также дана характеристика поддержки кредитования малого бизнеса. Предлагаются некоторые меры по решению проблем финансирования малого бизнеса.

**Ключевые слова:** кредитная политика, кредитный портфель, цель кредитной деятельности, необходимость кредитной политики, кредитная гарантия, процентные ставки, льготный кредит, финансовые ресурсы, кредитное обеспечение.

**Abstract:** This article examines the problems of financing small businesses: the bank's credit policy and requirements for it, the criteria for the credit policy of commercial banks, their policies to increase the profitability of loans, and a description of their policies to support small business lending. Some measures are also proposed to solve the problems of financing small businesses.

**Keywords:** credit policy, credit portfolio, purpose of credit activity, necessity of credit policy, credit guarantee, interest rates, preferential credit, financial resources, credit provision.

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini yanada yuqori bosqichga olib chiqishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'zni

tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimiz tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi.<sup>1</sup> Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, bankning kredit siyosatini kichik biznes rivojiga ta'siri, biznes yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda<sup>2</sup>. Kichik biznes korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish borasida tijorat banklarning kredit siyoyosati ma'lum o'rin egalaydi.

Kreditlash bank ishining o'zagi bo'lib, uning sifatiga qarab bankning faoliyati to'g'risida xulosa chiqarishi mumkin. Bankni kredit siyosati- kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati bilan xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. "Kredit siyosati" hujjati kreditlarni boshqarish jarayonini poydevorini tashkil qiladi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan "Kredit siyosati" kreditlarni oqilona boshqarishni yo'llaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat bankni kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parapetrlarda kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish bo'yicha ma'suliyatli bo'lgan bank xodimlari qo'llanma sifatida foydalanishlari lozim

Tijorat banklarini kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishni asosi bo'lib, bu siyosat bank xodimlarini kredit berish, bankni kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq, obyektiv standartlarni, mezonlarni belgilab beradi. Bankni kredit siyosati bankning hamma xodimlari-kichik xodimdan to bank boshqaruvi raisigacha bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham, kredit siyosatini oldindan belgilab olingan qoida va yechimlar to'plami deyiladi. Kredit siyosati malakali tuzilib, bank rahbaridan tortib operatorgacha barcha darajalarda me'yorida amalga oshirilsa, bu bank rahbariyatiga to'g'ri qarorlar chiqarish, ortiqcha risklardan xalos bo'lish, bank kreditlarini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi.

Har qanday tijorat bankining kredit siyosatini asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: kredit oqimlari hajmining o'sishini ta'minlash, riski yuqori bo'lgan operatsiyalarni odilona diversifikatsiyasini, o'rtava uzoq muddatli kredit qo'yilmalar hajmining ko'paytirilishini va ularning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Kredit siyosati bankning o'ziga xos "kredit manbai" ni yaratadi va u bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi" to'g'risidagi 12.05.2020 yildagi PF-5992 sonli Farmoni

<sup>2</sup> Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b

bankning huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>. Qat'iy kredit siyosati asosida berilgan bank umumiy kreditlash faoliyatining rivojlanishi va kreditlarning samaraki ishlatilishi uchun zamin yaratadi. Kredit siyosatida bank tomonidan berilgan kreditlar toifasi va turlarini aniqlash va belgilashlari lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'yilganlarini moliyalashtirish va boshqa tarmoqlarga kredit berish, kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash yoki kreditlashning boshqa usulini qo'llashni belgilab berishi mumkin. Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank boshqaruvi va Kengashini tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishlari lozim. Kredit siyosatiga qarzlarni qaytarishga doir izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilish kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim, kredit xodimlari portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatni xabardor qilishi lozim. Qarzdor yoki garovchining ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir. Tijorat banklarini kredit siyosatida kreditlarning daromadlilikini oshirish va ularning risk darajasini boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Kreditlarning daromadlilikini oshirishi va ularning risk darajasini boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Kreditlarning daromadlilikini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va ularni prognoz darajalari kredit siyosatida aniq ko'rsatilishi kerak. Tijorat banklari kreditlarning daromadlilikini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Har bir so'mlik kredit qo'yilmasiga to'g'ri keladigan daromad darajasi.

Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun kreditlardan olingan foizli daromadlar summasi kredit qo'yilmalari summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Shunisi xarakterliki, ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasi mavjud emasligi. Shu sababli, uni baholash uchun moliyaviy tahlilning qiyosiy usukidan foydalaniladi<sup>4</sup>.

2. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblik ko'rsatkichi. Mazkur ko'rsatkichdan foydalangan holda, tijorat banklari kredit qo'yilmalarining o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash uchun kredit

<sup>3</sup> R.Toymuhamedov, R.R.Tojiyev, A.A.Azlarova, N.R.Bazarova, N.G'.Sattorova.Pul va banklar.Darslik. – T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi», 2021 yil, 408b r.

<sup>4</sup> Niyazov Z. D., Maxsudov O.Sh. Investment attractiveness of the enterprise, as well as factors influencing its development in the economy of Uzbekistan./ Iqtisodiyot,moliya va innovasiyalar xalqaro ilmiy jurnali,dekabr 29, 2023 1(4) son, (47-55 betlar)

qo'yilmalarining o'sish sur'ati bilan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati har biri tahlil davri uchun taqqoslanadi.

3. Kreditlardan olingan foizli daromadlarni tijorat banki yalpi daromadi hajmidagi salmog'ini o'zgarishi. Kreditlar tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida eng yuqori salmoqni egallaydi. Shu sababli, kreditlardan olingan foizli daromadlarni tijorat banki yalpi daromadi hajmidagi salmog'i ham yuqori bo'lishi lozim.

Kichik biznes korxonalarini faoliyatining dastlabki bosqichlarida moliyaviy resurslarga ehtiyoji yuqori bo'lmas-da, ular rivojlanib faoliyatini kengaytirib borishi davomida ularda aylanma mablag'larni ko'paytirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun investisiya resurslariga talab yuzaga keladi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra yangi tashkil etilgan yoki yaqinda faoliyat yuritishni boshlagan tadbirkorlik subyektlarida bank kreditlariga muqobil ravishda moliyaviy mablag'lar jalb qilish manbalari cheklangan degan fikrni bildirgan. Ushbu davlatlarda kafolatlash tizimini joriy etish va ular faoliyatini samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda mulk huquqini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish lozim. Moliya bozorining samarali faoliyat yuritishi omillaridan biri bozorni yanada liberalizatsiyalash hisoblanadi. Kreditlar foiz stavkalarini subsidiyalash va to'g'ridan-to'g'ri kreditlash shaklidagi davlat aralashuvi raqobat muhiti shakllanishi va kreditlar taqsimlanishiga ta'sir o'tkazadi. Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlari korxonalarini uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu tarmoqni rivojlantirish nazarda tutilgan. Ayrim xo'jalik subyektlarini qisqa muddat qo'llab quvvatlash bozordagi raqobat muhitiga salbiy ta'sir o'tkazadi degan xulosa qilingan. Kichik biznes subyektlari tomonidan qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb etishda asosiy manba tijorat banklari kreditlari hisoblanmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznesga ajratilgan kreditlari ularning jami kredit portfelidagi va asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi o'sib borgan.

Bank muassasalaridan kredit olishida garov ta'minotining yetishmasligi yoki yo'qligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Kredit tashkilotlarining kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy mablag'lar taqdim yetmasligining asosiy sabablaridan biri va shuning barobarida uni olish masalasi kichik tadbirkorlik subyektlarining taqdim etilgan kreditni o'z vaqtida qaytara olmasligi bilan bog'liq. Garov ta'minotining yo'qligi, shu bilan birga tijorat muassasalaridan kredit ololmaslik aholining tadbirkorlik faolligini pasaytiradi, kichik ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishini rag'batlantirmaydi. Shuningdek, kichik biznes subyektlari kredit olishdagi muammolari ichki va tashqi muammolarga bo'linadi<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> Karimova A.M., Maxsudov O.Sh. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2023-yil, oktyabr, 10 son, (79-83 betlar)

Kredit olishdagi tashqi muammolar:

- moliya institutlari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalari yuqoriligi. Yuqori foiz stavkalari kichik biznesni kreditlash yuqori risk darajasiga egaligi bilan izohlanadi.

- kreditni so'ndirish muddati qisqaligi;

- kredit olish jarayoni murakkabligi, uzoq muddatligi va boshqalar. Kredit olishni qiyinlashtiradigan ichki muammolar:

- kichik biznes uchun taklif qilinayotgan kreditlar cheklanganligi, kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqobat bozori mavjud emasligi;

- faoliyatining miqyosi kichikligi, uning holatini baholash qiyinligi;

- kredit olish uchun biznes-reja tayyorlash sifati;

- kredit tarixi mavjud emasligi va boshqalar.

Moliya bozori rivojlangan mamlakatlar amaliyotida kredit tashkilotlari mablag'lari kichik biznesni rivojlantirish uchun asosiy moliyalash manbai hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashda tijorat banklari mablag'lari yuqori ulushni tashkil etadi.

Fikrimizcha, kichik biznesning globallasuv va xalqaro integrasiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida mavqeyining mustahkamlanib borishi quyidagi omillar bilan bog'liq: Birinchidan, iqtisodiyot rivojlanishining yangi bosqichida iste'molchilar korxonaning hajmi bilan belgilanuvchi miqdoriy ko'rsatkichlarga nisbatan mahsulot, xizmat, yangilik bilan tavsiflanuvchi sifat ko'rsatkichlarini afzal bila bosh ladilar. Bunday sharoitda qat'iy tarkibga ega bo'lgan yirik korxonalarga nisbatan bozor muhitiga tez moslashuvchan ki chik korxonalar iste'molchilar ehtiyojlariga mos tovarlarni ko'proq ishlab chiqaradilar. Ikkinchidan, fan-texnika taraqqiyotining yangi bosqichi ishlab chiqarishning ixtisoslashuvini kengaytirish, ko'plab tarmoqlarda korxonalarining oqilona hajmini kichrayti rish, turli xildagi tovarlar va xizmatlarni taklif etib, taklifning individuallasuvini ta'minlash bilan birga kichik korxonalarini ularning hajmiga muvofiq keluvchi tex nika bilan ta'minladi. Mikroprosessorlar, mini uskunalari, mini EHMlar va boshqalar ana shunday texnikalar jumlasidir. Bugungi kunda doimo yirik ishlab chiqarish tarmog'i hisoblangan metallurgiyada ham yirik korxonalar bilan bema lol raqobatlasha oluvchi mini zavodlar vujudga keldi. Va, nihoyat, uchinchidan, iste'molchining psixologiyasi o'zgardi. U bugungi kunda standart mahsulotlar sotib olishni, bir xil kiyim kiyishni, bir xil mashinada yurishni istamaydi, ya'ni talabning tabaqalashuvi (differensiasiyasi) va iste'molning individuallasuvi kuchaydi

Hozirgi sharoitda kichik bizneslarning raqobatchisi va hamkori, yirik ishlab chiqarish va butun iqtisodiyot rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. kichik

biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini va roli qanday ko'rsatkichlarda ifodalanadi? Uning iqtisodiyotda tutgan o'rniga baho berishda, eng avvalo, iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunday ko'rsatkichlar jumlasiga kichik biznesning yalpi ichki mahsulot, jami ish bilan band bo'lganlar, kapital qo'yilmalar, eksport va boshqalardagi ulushini kiritish mumkin. Shu bilan birga mamlakatdagi kichik va o'rta korxonalarining umumiy soni va har ming kishiga to'g'ri kela digan kichik va o'rta korxonalar soni ham mazkur sektorning rivojlanganlik darajasi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda bajaradigan vazifalarini tahlil qilish muhim o'ringa ega bo'lib, u yuqoridagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birga kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini va roli to'g'risida batafsil ma'lumot beradi.

Shuningdek, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning eng samarali shakllaridan biri va bank kreditlarini kichik biznesga jalb etishni oshirishga imkoniyat yaratadigan kafolat berish shakli hisoblanadi. Aksariyat mamlakatlarda anchadan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik va o'rta korxonalariga kredit olishi uchun ta'minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanishiga sharoit yaratib, kelmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi subyektlarini nafaqat qo'llab-quvvatlamoda, balki yangi korxonalarining paydo bo'lishini rag'batlantirmoqda. Xususan, AQShda Kichik biznes ma'muriyatining (SBA) kichik firmalar kreditlari yuzasidan kafolat berish dasturi mavjud bo'lib, u kredit qaytarilishi kafolatlangani uchun banklar kichik biznes subyektlariga kredit berish shartlarini sezilarli darajada yengillashtiradi<sup>6</sup>. Shu yo'l bilan tadbirkorlar o'zlariga zarur moliyaviy mablag'larni qulay shartlarda jalb qiladi va tijorat banklari uchun kreditni qaytarilish riski sezilarli darajada kamaytiriladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini oshirish uchun moliya bozorini yanada liberalizatsiyalash, ularga xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy infrastrukturani yanada takomillashtirilishi kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi oshishiga xizmat qiladi.

---

<sup>6</sup> Karimova A.M., Maxsudov O.Sh. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2023-yil, oktyabr, 10 son, (79-83 betlar)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi" to'g'risidagi 12.05.2020 yildagi PF-5992 sonli Farmoni.

2.Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.

3.R.Toymuhamedov, R.R.Tojiyev, A.A.Azlarova, N.R.Bazarova, N.G'.Sattorova.Pul va banklar.Darslik. –T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi», 2021 yil, 408b r.

4. Karimova A.M., Maxsudov O.Sh. Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan / Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali,2023-yil, oktyabr,10 son, (79-83 betlar)

5. Niyazov Z. D., Maxsudov O.Sh. Investment attractiveness of the enterprise, as well as factors influencing its development in the economy of Uzbekistan./ Iqtisodiyot,moliya va innovasiyalar xalqaro ilmiy jurnali,dekabr 29, 2023 1(4) son, (47-55 betlar)

6.Маnбaа: <https://www.bss.uz/article/1276-immatli-oozlar-bozori-veksellar-nima>